


**XORAZM VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2023- YIL YANVAR-AVGUST
(DASTLABKI MA'LUMOT)**



Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 13 105,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4 020 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan 3 984 tasi kichik biznes subyektlaridir. Yangi tashkil qilingan korxonalar soni 783 ta va barchasi kichik biznes hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Jami faoliyat yuritayotgan (1- sentabr holatiga ko'ra)


2023	4020 dona
2022	4671 dona
2021	4110 dona
2020	3375 dona
2019	2967 dona

Jami yangi tashkil etilgan (1- sentabr holatiga ko'ra)


2023	783 dona
2022	892 dona
2021	703 dona
2020	725 dona
2019	782 dona

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2023- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatimizda jami sanoat ishlab chiqarishi 13 105,9 mlrd. soʻmni, shundan 4,1 mlrd. soʻm togʻ-kon sanoatiga, 12 633,9 mlrd. soʻm ishlab chiqarish sanoatiga, 387,8 mlrd. soʻm elektr, gaz bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash sanoatiga, 80,2 mlrd. soʻm suv bilan taʼminlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʼish va utilizatsiya qilish sanoatiga toʻgʼri keldi.



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʻgʼri kelib, 10 879,3 mlrd. soʻmni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,3 % ni tashkil etdi.




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 244,8 %ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 5,3 %ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 10,0 %ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimining 8,2 %ga o'sishi kuzatildi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uychraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalarini tomonidan 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,1 mlrd. so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,03 % ga to'g'ri keldi.




Xorazm viloyatining ishlab chiqaradigan sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12 633,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,4 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,12 % ni (2022- yilning yanvar-avgust oylarida – 0,11 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 40,1 % (42,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,1 % (3,5 %), quyi texnologiyali 51,1 % (50,2 %)ni tashkil etgan.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtovositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 42,9 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 91,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,3 % (2022- yilning yanvar-avgust oyilarga nisbatan fizik hajm indeksi 98,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,3 % (2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 31,5 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 118,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,8 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 139,8 %)ni, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 1,5 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,7 %)ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 48 960,8 tonna (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 24,0 % ga oshgan), paxta chigit 81 569,9 tonna (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 9,4 % ga oshgan), 18 752,2 tonna paxtadan yigirlgan ip (6,6 % kamaygan), 170 566 tonna shakar (6,2 % kamaygan), o'simlik yog'i 3 961,1 tonna (46,6 % kamaygan), paxta lenti 4 892,7 tonna (12,7 % oshgan), uzum vinosi 469,8 ming litr (35,1 % oshgan), 88,4 ming litr aroq (76,3 % oshgan) hamda 31 084,9 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (47,4 % kamaygan) ishlab chiqarildi.


Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-avgust	2023-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
O'simlik yog'i, tonna	7 411,7	3 961,1	- 3 450,6
Shakar, tonna	181 766,4	170 566,5	- 11 199,9
Gilam, ming kv.m	1 072,0	1 590,0	518,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	59 107,8	31 084,9	- 28 022,9
Paxta tolasi, tonna	39 488,1	48 980,8	9 492,7

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Yengil avtomobillar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-avgust oylarida)

Yengil avtomobillar – umumi yoki maxsus yengil avtomobilarga bo‘linib, 2 kishidan 8 kishigacha mo‘ljallangan transport vositasi.

Viloyatimizda 2023- yilning yanvar-avgust oylarida yirik korxonalar bo‘yicha jami 52 547 dona yengil avtomobil ishlab chiqarildi. Yengil avtomobilari ishlab chiqarishda o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 12,7 % ga oshgani kuzatildi.



Maxsus yengil avtomobillar (2023- yilning yanvar-avgust oylarida)

Viloyatda 2023- yilning yanvar-avgust oylarida yirik korxonalar bo‘yicha jami 13 475 dona maxsus yengil avtomobil ishlab chiqarilib, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 10,7 foizga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 40,3 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 91,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5 090,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamlar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 42,7 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 323,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 22,2 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,0 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 2 806,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,3 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 178,6 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 177,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qmachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 18,6 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,7 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 2 349,6 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-avgust oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisabtan fizik hajm indeksi 96,5 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 81,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 142,9 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 70,3 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Elektr uskunalari ishlab chiqarish

Elektr uskunalari ishlab chiqarish – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo'lim elektr yorituvchi, signal uskunalari va maishiy elektr asboblar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,4 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 195,1 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 52,9 mlrd. so'm ekani kuzatildi.



Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 387,8 mld. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,96 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


2023- yilning yanvar-avgust oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 10,0 %ga oshganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-avgust	2023-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	306,1	954,7	648,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	45,1	70,8	25,7
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	1 231 642,0	865 810,0	- 365 832,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 80,2 mlrd. so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % iga) to'g'ri keldi.




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvgaga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 8,3 %ga oshganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 4,5 %ga kamayganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 0,8 %ga oshganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-avgust	2023-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, ming.so'm	4 052 736,0	3 871 922,0	-180 814,0
Tabiiy suv; suvgaga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, ming so'm	89 034 725,0	96 445 354,0	7 410 629,0
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	13 933 581,0	14 042 097,0	108 516,0

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi


Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 380,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 18,2 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-avgust oylarida kichik biznes subyektlarining umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 15,1 % ni tashkil etgan.



Isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish


Isteʼmol tovarlari – birinchi navbatda, shaxsiy isteʼmol uchun yoki foyda olish bilan bogʼliq boʼlimgan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qoʼllab-quvvatlash boʼyicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 8 270,3 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,1 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 63,1 % ga toʼgʼri keldi.




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2023- yil yanvar - avgust oylarida 6 669,8 ming so'm (2022- yil yanvar-avgust 5 777,0 ming so'm), o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,7 % o'sishni ko'rsatmoqda.




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2023- yil yanvar-avgust oylarida 4 208,9 ming so'm bo'lgani holda, (2022- yil yanvar-avgust oylarida 3720,8 ming so'm), o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,3 % o'sishni ko'rsatmoqda.



Nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

2023- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 4 553,8 mlrd so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,5 % ni tashkil etdi. Nooziq-ovqat mahsulotlarini jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 55,1 %ni tashkil etadi.



55,1 %



Nooziq-ovqat mahsulotlarini jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

44,9 %



Oziq-ovqat mahsulotlarini jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

2023- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 3 706,4 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 16,3 % ga oshdi. Oziq-ovqat mahsulotlarini jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,9

